




ETNOLOGIYA MUZEYSHUNOSLIGI

O'quv qo'llanma

Bexzod Zokirov

TOSHKENT-2024



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

B.I.ZOKIROV

**ETNOLOGIYA
MUZEYSHUNOSLIGI**

60220600 - Antropologiya va etnologiya ta'lif yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma

Toshkent – 2024

UO'K: 63.5-79.14

BBK: 3.39.394

Zokirov B.I.

Etnologiya muzeysenosligi / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "TDSHU", 2024. – 124 b.

O'quv qo'llanma ijtimoiy-gumanitar yo'nalishida tahlil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, etnologiya muzeysenosligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, mazkur fan talabalarga muzeylarda etnografik eksponatlarni o'rghanish orqali etnologik ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va muzeysenos-etnograf sifatida faoliyat olib borish uchun xizmat qiladi.

O'quv qo'llanma bakalavrlarga etnologiya va muzeysenoslikning ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, ilmiy maqola, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bo'yicha ham ma'lumotlar berib, ijtimoiy-gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

A.X. Doniyorov tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.M. Askarov tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

X.S. Jumanazarov tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2024-yil 10-iyuldaggi 165-UM-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© B.I. Zokirov, 2024.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.

MUQADDIMA

Muzeeyshunoslik - bugungi kunga kelib o‘zining muayyan faoliyat turiga ega soha. Ya’ni muzeylar turli fondlarni butlaydi va o‘rganadi. Ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta’mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo‘l-ko‘rsatkichlar nashr etadi. Zamonaviy muzeeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Siyosiy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeyning paydo bo‘lish tarixi esa olis davrlarga borib taqaladi. Muzeylarning tashkil topishi va faoliyat doirasining kengayib borishi esa jahon sahnasining turli hududlarida o‘ziga xos xarakterda taraqqiy topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mamlakatda mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy tarixiy turizm bilan birgalikda ziyorat qilish, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash - sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa salohiyatli turlarini jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz turizm salohiyatini rivojlantirish borasidagi quyidagi fikrlarni bildirib o’tdilar: “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo’lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro’yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo’lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim”¹. Muzeylar faoliyatini yanada isloh qilish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Muzeeyshunoslikning o‘zi tarix fanining tarkibiy qismi bo‘lib, arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarni, umuman, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy xazinani targ‘ib qilish ishlarini olib boradi. Umuman, muzeeyshunoslikning boshqa fanlar bilan har tomonlama uzviy bog‘liqligi, uning obyektiv jihatdan murakkabligini belgilaydi.

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

Muzeeyshunoslik ham ijtimoiy, ham tabiiy fanlar bilan uzviy aloqador, ayniqsa, uning muzey mavzuyiga oid fanlar va yordamchi fan sohalari (tarix, arxeologiya, geologiya, etnografiya, adabiyotshunoslik, zoologiya, san'atshunoslik va boshqalar) bilan umumiy tomonlari ko‘p.

Muzeeyshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlardan biri bo‘lgan etnologiya bilan bog‘liqligi natijasida paydo bo‘lgan yangi fan tarmog‘i etnologiya muzeyshunoslige bo‘lib, bir tarafdan muzeylardagi entografik manbalarni hamda xuddi shu manbalarni muzeylashtirishni o‘rgansa, boshqa tomondan, aynan shu manbalar orqali xalq moddiy-madaniyatining tadrijiy taraqqiyoti, ilmiy interpretatsiyasini tadqiq etadi. Eng avvalo, ushbu fanni kengroq mushohada qilish uchun, “etnologiya” va “etnografiya” tushunchalarining farqini bilib olishimiz darkor. Etnografiya yunoncha bo‘lib, “etnos” - xalq, “grafiya” - tavsiflash degan ma’nolarni anglatadi. Mazkur fanning metodologik masalalariga bag‘ishlangan qator ishlardan ko‘rinadiki, “etnologiya” va “etnografiya” tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to‘g‘ri emas. Negaki, agar an’anaviy «etnografiya» u yoki bu etnos (etnik birlik) ga oid bo‘lgan materiallarni to‘plab, tizimlashtirib va ularni ko‘proq tavsiflab bersa, «etnologiya» etnos haqidagi barcha ma’lumotlarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususda umumiy xulosalar chiqaradi. Demak, “etnologiya” tushunchasi “etnografiya” tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq, balki etnografiya etnologiyaning ma’lum bir qismi, deb aytish mumkin.

Etnologiyaning tadqiqt obyekti ma’lum bir xalq va u bog‘liq bo‘lgan moddiy madaniyatning o‘ziga xosligi bo‘lib, muzey ham shu moddiy madaniyatni to‘plovchi hamda saqlovchi maskan sifatida etnografik dala tadqiqtolari natijasida qo‘lga kiritilgan etnografik buyumlar tarkibini to‘ldiradi, muzeylardagi etnografik fondlar va ekspozitsiyalar orqali ma’lum etnos haqida umumiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. “Etnologiya muzeyshunosligi” nomi ostida tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma tegishli yo‘nalishda tahsil olayotgan bakalavrлarni sohaga oid eng so‘nggi tadqiqt usullari bilan tanishtirish imkonini berib, ularni etnograf, etnolog va antropolog mutaxassis bo‘lib shakllanishlariga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan joy olgan ma’ruzalarda etnologiya muzeyshunoslige tushunchasi, etnografik fond va ekspozitsiyalar, muzey predmetlarini hisobga olish va saqlash tartibi, muzeylarning ilmiy-ma’lumotnomalarini apparati va ilmiy tadqiqtchilik faoliyati, XVII

asrgacha muzey ishining rivojlanishi, dunyo mamlakatlarida etnografik muzeylarning paydo bo‘lishi va xususiyati, Rossiyada muzeylarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, O‘zbekiston hududida muzeylarning paydo bo‘lishi va faoliyati, mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylar ishi va etnografik ekspozitsiyalarning yig‘ilishi, O‘zbekiston etnografik kolleksiyalari – muzey predmeti sifatida, etnografik predmetlarni muzey eksponatiga aylantirish va ko‘rgazma tayyorlash metodlari, jahon muzeylaridagi O‘zbekiston etnografiyasiga oid kolleksiyalar kabi muammolarga keng o‘rin berilgan.

Qolaversa, ma’ruza mavzularida yoshlarni tarixga muhabbat, Vatanimizning qadimiyligi va boy tarixini chuqur o‘rganish, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning beba ho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o‘z xalqi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish asosida milliy o‘zlikni anglash hissini mustahkamlashga yetaklovchi g‘oyalar o‘rin olganligi ahamiyatlidir.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda mualliflik tarjimasidan keng foydalanilgan bo‘lib, tarjimalar asosida bir qator tarixchi olimlarning ilmiy va nazariy xulosalaridan, asarlari va monografiyalaridan o‘rin olgan masalalar tahliliy ravishda ishga jalb etilgan.

O‘quv qo‘llanma tarix mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavr va magistr talabalari “O‘zbekiston tarixi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”, “O‘zbeklar etnologiyasi va uning tarixshunosligi”, “Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi”, “Yordamchi tarixiy fanlar”, “Antropologik va etnologik tadqiqot usullari” va boshqa tarix sohasidagi fanlarni o‘zlashtirishda, shuningdek, ilmiy xodim, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar va keng kitobxonlarga mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy qismini tashkil etuvchi ma’ruzalarning so‘ngida bilimlarni mustahkamlovchi savollar o‘rin olganligi alohida ahamiyat kasb etib, ular talabalarning turli muammolar doirasida mustaqil fikrlarini shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmaning so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati o‘rin olgan bo‘lib, ro‘yxatda so‘ngi yillarda nashr etilgan adabiyotlar yetakchi o‘rin tutganligi ahamiyatlidir. Yangi metodologiyalar asosida yaratilayotgan adabiyotlarning jalb etilganligi ushbu o‘quv qo‘llanmaning ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: ETNOLOGIYA MUZEYSHUNOSLIGI FANIGA KIRISH

Reja:

- 1. Fanning tadqiqot doirasi, obyekti va predmeti.**
- 2. Etnologiya muzeysenosligining ijtimoiy funksiyalari.**
- 3. Etnologiya muzeysenosligining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.**

O'quv maqsadi: *Talabalarda etnologiya muzeysenosligi, fanning obyekti va predmeti haqida tushuncha hosil qilish, mazkur fanning maqsad hamda vazifalari haqida ma'lumot berish.*

Tayanch so'z va iboralar: *Etnologiya muzeysenosligi, muzey, eksponat, fond, muzeylashtirish, madaniyat-jamiyat-shaxs, muzey pedagogikasi, muzey kommunikatsiyasi, muzey marketingi.*

Insoniyat tomonidan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiydan murakkablikka, alohidilikdan umumiylitka ega bo'luvchi o'ziga xos uzlusiz jarayon hisoblanib, uning o'tmishi va hozirgi holati o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjuddir. Moddiy boyliklarning yaratilishi jarayonidagi barcha bosqichlar doimo bir-birini to'ldirib borgan. Ibtidoiy davrda insoniyat tomonidan yaratilgan eng oddiy tosh qurollar bilan hozirgi zamonaviy mehnat qurollari o'rtasida ham o'ziga xos bog'liqlik mavjuddir.

Moddiy madaniyat - bu, eng avvalo, uy-joylar, mehnat qurollari, transport, aloqa vositalari, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, har xil buyumlar, xullas, insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko'nikmalari va mahoratlaridir. Kishilarning moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoni moddiy madaniyatning ko'plab tarmoqlari vujudga kelishiga olib keldi. Odamlarning tabiatga ongli ta'sir ko'rsatishi dastlab dehqonchilik madaniyatini vujudga keltirdi. Agrar sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish jarayonida kishilar yerga ishlov berish madaniyatini egalladilar. Hunarmandchilikning taraqqiy etishi esa turli xil kasbiy madaniyatlarning shakllanishiga, ishlab chiqarishga texnikaning kirib kelishi ishlab chiqarish texnika madaniyatni kabi moddiy madaniyatning turli sohalarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Kishilar turmush shart-sharoitlarining yaxshilana borishi o'zida ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatni birlashtiruvchi turmush madaniyatining vujudga kelishiga olib keldi. Uy-joy, kiyim-kechak,

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
1-mavzu: Etnologiya muzeyshunosligiga kirish.....	6
2-mavzu: Muzey fondi va uni to‘ldirish. Muzey ekspozitsiyasi.....	12
3-mavzu: Muzey faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Muzey predmetlarini hisobga olish va saqlash tartibi.....	21
4-mavzu: Muzeylarning ilmiy-ma’lumotnomma apparati va ilmiy tadqiqotchilik faoliyati.....	28
5-mavzu: XVII asrgacha muzey ishining rivojlanishi.....	36
6-mavzu: Dunyo mamlakatlarida etnografik muzeylarning paydo bo‘lishi va xususiyati.....	47
7-mavzu: Rossiyada muzeylarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	56
8-mavzu: O‘zbekiston hududida muzeylarning paydo bo‘lishi va faoliyati.....	65
9-mavzu: Mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylar ishi va etnografik ekspozitsiyalarning yig‘ilishi.....	72
10-mavzu: O‘zbekiston etnografik kolleksiyalari – muzey predmeti sifatida.....	80
11-Mavzu: Etnografik predmetlarni muzey eksponatiga aylantirish va ko‘rgazma tayyorlash metodlari.....	90
12-mavzu: Jahon muzeylaridagi O‘zbekiston etnografiyasiga oid kolleksiyalar.....	98
Glossariy.....	110
Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	116

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rektorining 2024-yilning 10-iyuldagи
165-UM-sonli buyrug'iiga asosan

Zokirov Bexzodjon Ilhomjon o'g'lining
60230500-Antropologiya va etnologiya ta'lim
yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan
"Etnologiya muzeyshunosligi" nomli o'quv
qo'llanmasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan
nashriyotlarda hamda
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
bosmaxonasida nashr etishga ruxsat berildi.

Rektor

G.Rixsiyeva

imzo

Ro'yxatga olish raqami 165-16



B.I.ZOKIROV

ETNOLOGIYA MUZEYSHUNOSLIGI

Muharrir *M.Abbasova*
Tex. muharrir *G.Abbasova*
Sahifalovchi *B. Haydarov*

Bosishga ruxsat etildi 12.08.2024. Бичими 60x84 ^{1/16}
Ofset qog‘ozi. «Tayms» garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 7.5 Nashr hisob tabog‘i 6,2.
Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 25/06-133.

«DIMAL» OK matbaa bo‘limida chop etildi
Manzil: Toshkent sh., Huvaydo ko‘chasi 2A-uy.

